

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
(ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,
“ECONOMIC RESEARCH)**

ILMIY JURNALI

3

2023

Toshkent

3
2023

Elektron ilmiy jurnal
Научный электронный журнал
Scientific digital journal

IQTISODIY TADQIQOTLAR
ELEKTRON ILMIY JURNALI

MUASSIS

Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti

Tahrir kengashi raisi:

Abduraxmonov Qalandar Xodjayevich – i.f.d., prof., akademik

Tahrir kengashi:

Eshov Mansur Po'latovich - i.f.d., professor
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna – i.f.d., professor
Xudoyqulov Sadridin Karimovich – i.f.d., professor
Begalov Baxodir Abdusalovich – i.f.d., professor
Bekmurodov Adxam Sharipovich - i.f.d., professor
Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor
Maxmudov Nosir Maxmudovich - i.f.d., professor
Salimov Baxtiyor Tadjiyevich - i.f.d., professor
Mustafaqulov Sherzod Igamberdiyevich - i.f.d., professor
Jumayev Nodir Xosiyatovich - i.f.d., professor
G'ofurov Ubaydullo Vaxabovich - i.f.d., professor
Xolmo'minov Shayzaq Raxmatovich - i.f.d., professor
Amirov Lochinbek Fayzullayevich – i.f.f.d., dotsent
Xatamov Ibodullo Sadullayevich – i.f.n., dotsent
Asqarova Mavluda Turopovna – i.f.n., dotsent
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich – i.f.n., dotsent
G'ayibnazarov Sanjar Baxodirovich – i.f.n., dotsent
Kamalova Malika Nizamovna – i.f.n., dotsent
Mamaraximov Bekzod Erkinovich – i.f.n., dotsent

Tahrir hay'ati:

Begzod O'rinov – (AQSh)
Uktam Burxanov – (Chexiya)
Bozorboy Berkinov – i.f.d. (O'zbekiston)
Mark Rozenbaum (AQSh)
Volfgang Lukas (Germaniya)
N.V.Morozov (Rossiya)
Viktoriya Vdovichenko (Ukraina)
Gulyabmir Raxmani (Afg'oniston)
Axmed Muxamed Aziz Ismail (Misr)
Kaukab Azim (Saudiya Arabistoni)
Sherqul Shodmonov (Toshkent)
Rauf Salaxodjayev (Toshkent)
Axmedjon Mamatov (Toshkent)
Ju Jengron (Xitoy)
Jou Chingjiye (Xitoy)

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
ELEKTRON ILMIY JURNALI**

**3
2023**

**Elektron ilmiy jurnal
Научный электронный журнал
Scientific digital journal**

Bosh muharrir:

Eshov M.P.- i.f.d., prof.

Adabiy muharrir

Xajiyev B.D.- i.f.n., dots.

Bosh muharrir o'rinbosari

Amirov L.F. - PhD

Musahhih:

Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foydala-nilganda "Iqtisodiy tadqiqotlar" elektron ilmiy jurnalidan olindi deb ko'rsatilishi shart.

Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan. Maqolada keltirilgan dalillar va ma'lumotlar uchun muallif javobgar.

Veb-sayt manzili: <https://economicresearch.tsue.uz>

E-mail: economicresearchjournal@gmail.com

MUNDARIJA

IQTISODIYOT, INNOVASIYA VA TADBIRKORLIK NAZARIYA VA AMALIYOT

Shadmanov E.Sh., Maxsadov M.O.	Improvement of methodology of accounting and analysis of included financial statements and investments in subsidiary societies
Irgashev D.I. Muxtarov Sh.Sh.	Aksiyadorlik jamiyatlari foydasini optimal taqsimlashda dividend siyosatini takomillashtirish yo‘llari
Abdurakhman M.A. Abdurakhim A.B. Elnoza A.K.	Analysis of international experience in assessing the efficiency of bim technologies in construction

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH: MAKROIQTISODIY YONDOSHUV

Usmanova R.M.	Makroiqtisodiy darajada ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanish yo‘nalishlari
---------------	--

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH, IJTIMOIIY SIYOSAT VA BANDLIK

Mamaraximov B. E.	Ishchi kuchini takror ishlab chiqarishda bandlik xizmati muassasalarining ahamiyati
Azizbek Ismoilov	Aholi bandligi va uni tartibga solish nazariyalari tahlilining uslubiy asoslari

TARMOQLAR IQTISODIYOTI VA REAL SEKTORNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH

Gafurov Anvar	Oliy ta’lim muassasalarini boshqaruvini takomillashtirish islohotlari
Усманова С.С.	Тенденции развития фармацевтической промышленности республики узбекистан
Нигматова Д Адилов Б	Финансовые отношения – в мире бизнеса
Usmonov Sh. Sh.	“Yashil” iqtisodiyotda quyosh energiyasining o‘rni va undan foydalanish masalalari

Egamberdiyev M

Роль социального сельского хозяйства в условиях
модернизации экономики. (на примере опыта
республики чехия)

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH: MAKROIQTISODIY YONDOSHUV

MAKROIQTISODIY DARAJADA TA'LIM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

DEVELOPMENT DIRECTIONS OF THE MARKET OF EDUCATIONAL SERVICES AT THE MACROECONOMIC LEVEL

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ РЫНКА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ НА МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОМ УРОВНЕ

i.f.n., dotsent USMANOVA RANO MIRJALILOVNA

Alfraganus universiteti

rano.usmanova25@gmail.com

phone: +998 97 775 27 65

ORCID ID: 0009-0008-7594-7983

Annotatsiya. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, diversifikatsiyalash hamda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilishi natijasida ko'p tarmoqli va to'laqonli, samarador milliy iqtisodiyotning barpo etilishi, iqtisodiyotning izchil va muvozanatli yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiy manfaatlarni ruyobga chiqarishning real mexanizmlarini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish yuzasidan salmoqli natijalarga erishildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini "to'liq ro'yobga chiqarish mehnat bozorining rivojlanishi, real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni inobatga olgan holda unga aniqliklar kiritish"ni talab etdi. O'zbekiston iqtisodiyotida izchil amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar ta'lim xizmatlari bozoridagi ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabga ta'sir etadi. O'z navbatida ta'lim xizmatlari bozori ushbu talabni miqdoriy, tuzilma va sifat jihatidan yanada to'laroq qondira olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Ushbu jarayonning barqarorligi va samarali borishi aynan ta'lim xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarning ro'y berayotgan o'zgarish va tendensiyalarga qanchalik moslashtirib borilishiga bog'liqdir.

Kalit so'zlari: inson resurslari, ta'lim xizmatlari bozori, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ta'lim sohasi, ta'lim.

Abstract. As a result of the liberalization, diversification and structural changes of the economy, the establishment of a multi-sectoral and full-fledged,

effective national economy, ensuring consistent and balanced high growth rates of the economy, creating real mechanisms for the realization of economic interests, significant results were achieved in terms of attracting foreign investments, developing small business and private entrepreneurship, and social protection of the population.

"The full implementation of the national personnel training program required the development of the labor market, the introduction of clarifications into it, taking into account the real socio-economic conditions." The ongoing structural changes in the economy of Uzbekistan affect the demand for educational services in the market of educational services. In turn, the market of educational services should have the ability to satisfy this demand more fully in terms of quantity, structure and quality. The stability and effectiveness of this process depends on the extent to which the economic relations in the market of educational services are adapted to the changes and trends.

Key words: human resources, market of educational services, socio-economic development, educational sector, education.

Аннотация. В результате либерализации, диверсификации и структурных изменений экономики, создания многоотраслевой и полноценной, эффективной национальной экономики, обеспечения последовательных и сбалансированных высоких темпов роста экономики, создания реальных механизмов реализации экономических интересов, достигнуты значительные результаты в плане привлечения иностранных инвестиций, развития малого бизнеса и частного предпринимательства, социальной защиты населения.

«Полноценная реализация национальной программы подготовки кадров потребовала развития рынка труда, внесения в него разъяснений с учетом реальных социально-экономических условий». Происходящие структурные изменения в экономике Узбекистана влияют на спрос на образовательные услуги на рынке образовательных услуг. В свою очередь, рынок образовательных услуг должен иметь возможность более полно удовлетворить этот спрос по количеству, структуре и качеству. Устойчивость и эффективность этого процесса зависит от того, насколько экономические отношения на рынке образовательных услуг адаптированы к изменениям и тенденциям.

Ключевые слова: человеческие ресурсы, рынок образовательных услуг, социально-экономическое развитие, образовательная сфера, образование.

KIRISH

Hozirgi davrda ahonda kuchayib borayotgan globallashuv sharoitida inson resurslari iqtisodiyotini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omiliga aylanishiga iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi texnologik o'zgarishlar ko'proq inson kapitalining jamg'arilishi bilan bog'liq ekanligi ta'lim va fan sohaslarini jahonda ro'y berayotgan o'zgarishlarga mos doimo uzluksiz takomillashtirib borishni taqozo etadi, shundagina ta'lim sohasining jamiyat taraqqiyoti va milliy iqtisodiyotning innovatsiyalar asosida yanada samarali rivojlanishiga ta'siri kuchayib boradi. Shu bois mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yanada jadallashtirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ta'lim tizimining rolini muttasil oshirib borish zarur.

ADABIYOTLAR SHARXI

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda ta'lim sohasining iqtisodiy jihatlarini tadqiq qilish XX asrning 90- yillari o'rtalaridan boshlangan. Ungacha bo'lgan davrda E.G'.Nabiyev xizmat ko'rsatish sohasining takror ishlab chiqarish jarayonidagi o'rni bilan bog'liq muammolarni tahlil etishda inson kapitali va uning jamg'arilishi bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etgan.

S.S.G'ulomov o'z kitobida mustaqillik yillarida ta'lim xizmatlari bozorining asosiy subyekti bo'lgan oliy ta'lim tizimi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bergan. Uning fikricha, «Ta'lim shunchaki jamiyat hayotining tomonlaridan birigina emas, balki umuman jamiyatni rivojlanishning yetakchi tizimini hosil qiluvchi omil bo'lmoqda».

M.X.Saidov esa oliy ta'limni investitsiyalash, boshqarish va uning marketingi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot ishida kuzatish, umumlashtirish, omilli va dinamik takkoshlash, mantiqiy taxlil usullaridan foydalanilgan

NATIJALAR

Shuni alohida ta'kidlash joizki, XX asrda bozor modellari o'zgarib bordi. Bu holat aholi ehtiyojlarining o'sib borishi, ishlab chiqarish ko'lamlarining kengayib borishi, uning texnik va texnologik asosi hamda menejmentining takomillashishi, globallashuv jarayoni ta'sirida raqobatning kuchayishi kabi omillar ta'sirida ro'y bergan. Ushbu bozor modellari turlari quyidagilardir:

- ishlab chiqarishga yo'naltirilgan;
- taqsimlashga yo'naltirilgan;
- iste'molchiga yo'naltirilgan.

Hozirgi davrda ta'lim muassasalari o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim xizmatlarini taklif eta olmaydilar. Chunki ta'lim xizmatlari iste'molchilarining talablaridan kelib chiqqan holda ko'rsatilishi lozim. Shu bois vaziyatni oliy ta'lim muassasalari anglab yetgan holda o'z faoliyatlarini rejalashtirishlari zarur.

Bizning fikrimizcha, ta'lim tizimida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish muammosini hal etish bir necha jihatlarni aniqlab olishni talab etadi. Birinchi masala, ushbu muammoni hal etishdan asosiy maqsad nimadan iborat. Hozirgi davrda bu masalaga ikki yondashuv mavjud. Birinchi yondashuvda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga (ta'lim muassasalari, professor-o'qituvchilar, o'quvchilar, ularning ota-onalari, korxonalar) iloji boricha ko'proq tanlash erkinligini berib, undan so'ng esa bozor mexanizmiga ishonib, ularni o'zlariga topshirish. Ushbu yondashuv liberal yondashuv deyiladi.

Ikkinchi yondashuv esa, nafaqat ta'lim sohasida balki ta'lim olishda ham teng huquqlarni ta'minlashni nazarda tutadi. Bu yondashuv ijtimoiy yondashuv deyiladi. Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishda keltirilgan ikki yondashuvning sintezidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, hali yangi iqtisodiy tizim to'liq shakllanmagan sharoitda liberal yondashuvga asoslanish mumkin emas edi, zero bu davrda hali bozor mexanizmi (narx, raqobat) to'liq ishga tushmaganligini ko'rish mumkin. O'z navbatida ijtimoiy yondashuvga to'liq asoslanishga mamlakat moliyaviy resurslarining cheklanganligi imkon bermas edi.

Ikkinchi masala ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning mezonini aniqlab olish. Ta'lim xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning mezoni ta'lim sifati hisoblanadi.

Hozirgi davrda ta'lim sifatini oshirish oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda birinchi galda hal etilishi lozim bo'lgan muammo sanaladi. Maastricht shartnomasining 126- moddasida Yevropa hamjamiyati unga a'zo bo'lgan mamlakatlar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirish zaruriyati bo'lganida ularning harakatini qo'llab-quvvatlash va to'ldirish asosida sifatli ta'limni rivojlantirishga intiladi, deb ta'kidlangan. Yevropa hududida oliy ta'lim ixtisosliklarini tan olish xususidagi YUNESKO Konvensiyasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarining avtonomlik huquqlarini buzmasdan, ta'lim va o'quv dasturlarining sifatini kafolatlovchi jarayonlarni shakllantirish va qo'llab-

quvvatlash borasidagi mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarur, deb qayd qilingan.

Ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish ta'lim tizimini qanday usullar va vositalar yordamida moliyaviy ta'minlash muammosini hal etishni talab qiladi. Bu masala mamlakatimizda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu holat oliy ta'lim tizimida moliyalashtirishning yangi usullari, vositalari va manbalaridan keng foydalanishni talab etadi.

Ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashda quyidagi holatlarni inobatga olish zarur:

- ta'lim tizimining, shu jumladan, ta'lim xizmatlari bozorining taraqqiyoti mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq;

- mamlakatimizda bozor talablari va xalqaro andozalarga mos keladigan ta'lim tizimining samaradorligini oshirish hozirgi davrda asosiy vazifa ekani.

Ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri – ta'limning uzluksizligini ta'minlashdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan mamlakatimizda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va undan keyingi ta'limni o'z ichiga qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil ta'lim tizimi barpo etildi.

Oliy ta'limning bakalavrlar va magistrnlarni tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimi joriy etildi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha raqobatbardosh ta'lim muassasalari vujudga keltirildi. Biroq, hozirgi davrda jahonda yuz berayotgan o'zgarishlar uzluksiz ta'limga kengroq yondashuvni talab etmoqda. Chunki bugungi kunda texnika sohasidagi innovatsiyalar, ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarni boshqarish va mutaxassislarni tayyorlash o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda oliy ta'lim tizimi talab qilinadigan sifat darajasida mutaxassislarni tayyorlash bilan javob qaytarish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, doimiy ravishda tez sur'atlarda ko'payib va o'zgarib boruvchi axborotlar ta'lim sohasidagi o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi yetakchi omil bo'lib hisoblanadi. Bu o'zgarishlar jadal sur'atlarda ro'y berayotganligi sababli oliy ta'lim tizimi uni to'liq o'zlashtira olmayapti. Shu bois malakaviy bilimlarni doimiy ravishda yangilab borish insonning umri bo'yi uzluksiz ta'lim olishi zaruriyatini taqozo etmoqda. Bu holat bilim olish va malakani oshirishning yangi shakllari vujudga kelishi va ta'lim xizmatlari bozori ko'lamlarining kengayishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimizda ushbu yo‘nalish ta’lim xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarning negizini tashkil etuvchi mulkiy munosabatlarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Chunki faqat davlat mulkiga asoslangan ta’lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish mushkuldir.

Ushbu holat ta’lim xizmatlari bozoridagi xizmatlarning sifatiga ham ta’sir etmay qolmaydi. Demak, ta’lim xizmatlari bozorida davlat nazoratini saqlab qolgan holda turli mulkchilik shakllariga asoslangan ta’lim muassasalarini vujudga keltirish maqsadga muvofiqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mamlakatimizda «davlat va nodavlat muassalari rivojlantiriladi, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi, ta’lim xizmatlari bozori davlat yo‘li bilan boshqarilib boriladi» deb qayd qilingan. Ta’lim uzluksizligini ta’minlash yo‘lida bilim olish, malakani oshirishning noan’anaviy shakllarini ham rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ta’lim xizmatlarining sifatini yanada oshirishdan iborat. Ta’lim xizmatlarining sifati uni iste’molchiga ko‘rsatuvchi ta’lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishga bog‘liqdir. Ayni paytda ta’lim xizmatlarining sifatini oshirish yo‘li bilan uning raqobatbardoshligi ta’minlanadi.

Ta’lim xizmatlarining raqobatbardoshligi bu ularning ta’lim xizmatlari bozorining talablariga javob berish qobiliyati va ularning bozorda sotilishidir. Ushbu jarayonlar asosida ma’lum xarakterdagi extiyojlarni qondirish imkoniyatlarini beruvchi xususiyatlar yotadi. Ta’lim xizmatlarining raqobatbardoshligi ularni boshqa shu turdagi xizmatlarga solishtirish asosida aniqlanadi. Bu asosan quyidagi ikki parametr orqali amalga oshiriladi: ta’lim xizmatlarining aniq ehtiyojga mosligi va bu extiyojni qondirish xarajatlari. Ta’lim xizmatlarining raqobatbardosh bo‘lishi, ya’ni talabni qondirishi uchun ularning sifati iste’molchiga mos kelishi lozim. Ta’lim xizmatlarining sifati ularning bozorda raqobatbardoshligini ta’minlovchi yetakchi omildir.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish jarayonining huquqiy, tashkiliy va moddiy jihatdan yetarli darajada tashkil etilishi kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirishni ta’minlashning asosi bo‘lib hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ta’lim xizmatlari sifatini oshirish quyidagi muammolarni hal etishni talab qiladi:

-oliy ta’lim tizimida professor-o‘qituvchilarning maqomini va moddiy manfaatdorligini yanada oshirish;

-o'qituvchilarni qayta o'qitish tizimi samaradorligini oshirish asosida yangi pedagogik texnologiyalarning o'quv jarayoniga tatbiq etilishini uzluksiz davom ettirish;

-oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini hozirgi zamon talablariga javob beradigan darajaga olib chiqishni ta'minlash;

- oliy ta'lim tizimini axborot bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlash va axborotlar bilan ta'minlash texnologiyalarini amaliyotda qo'llash va ulardan to'liq foydalanish;

-oliy ta'lim muassasalari avtonomligini yanada oshirishni ularning huquqlar doirasini kengaytirish orqali ta'minlash.

Ma'lumki, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

-shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi, davlat va jamiyat, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi;

-uzluksiz ta'lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasini va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

-fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

-ishlab chiqarish, kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'llanilgan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Ta'lim xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri kadrlar tayyorlash milliy modelining elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirishdir. Ushbu yo'nalish ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozori o'rtasidagi muvofiqlik va bog'liqlikni kuchaytirish; ta'lim bilan fan o'rtasidagi bog'liqlikning samaradorligini yanada oshirish; ta'lim tizimi va ta'lim xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solish tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi.

Ta'lim xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarning oqilona ekanligi mezonini ta'lim xizmatlarining sifati tashkil etadi. Biroq, ushbu masalaga

kengroq yondashadigan bo'lsak, sifatli ta'lim xizmatlarini olgan insonning ta'limdan so'ng mehnat bozorida mutaxassisligi bo'yicha ish topishi va munosib turmush kechirishi ham bu mezonga qo'shilishi maqsadga muvofiq.

Ta'kidlash joizki, ta'lim xizmatlari bozori, ayniqsa, o'rta va uzoq muddatli davrda ta'lim xizmatlari bozori bilan uzviy bog'liq. O'z navbatida, ta'lim xizmatlari bozori bilan mehnat bozorining o'zaro moslashishi ta'lim berish shakllariga bog'liq. Ta'lim berish davri qanchalik uzoq bo'lsa, ushbu ikki bozorning moslashish vaqti shunchalik uzoq bo'ladi. Bu holat birinchidan, ta'lim xizmatlari turlarini tanlashda noaniqlik darajasining yuqori bo'lishiga, ikkinchidan, malakali kadrlarni tayyorlashda tuzilmaviy nomuvofiqlikning vujudga kelishi ehtimolining yuqori bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ta'lim xizmatlari bozori subyektlari avvalo hozirda va istiqbolda mehnat bozoridagi holatni o'rganish va mavjud talablardan kelib chiqqan holda milliy iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalariga zarur bo'lgan sifatli kadrlarni tayyorlashga o'z faoliyatlarini qaratishlari o'ta muhimdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'lim xizmatlarining iste'molchilari nuqtai nazaridan ta'lim tizimi ixtisoslashtirilgan ta'lim standartlariga asoslangan holda ularning o'sib borayotgan aqliy ehtiyojlarini qondirish va tayyorlangan mutaxassislarning yuqori harakatchanligini ta'minlashi lozim. Bunga erishish esa iqtisodiy tizimni qayta qurish, sanoatda diversifikatsiyalash, modernizatsiyalash ro'y berayotgan davrda jahon bozorida munosib o'rin egallashga harakat qilayotgan mamlakatimiz uchun ayniqsa muhimdir.

Ta'lim tizimi mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni kuchaytirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, hozirgi davrda, birinchidan, fan va texnikaning uzviy rivojlanishini yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislarsiz ta'minlab bo'lmaydi va ilmiy ishlanmalarning aksariyat qismi oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilmoqda, ikkinchidan esa, yangi texnologiyalarni joriy qilish va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish ish joylarida amalga oshirilmoqda, o'quv yurtlarida o'qitilayotgan talabalarda yangilikka, faollik, oliy kashfiyotlarga moyillik qobiliyatini shakllantirish texnika taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi strategiyasi tayyorlanayotgan mutaxassislarni ish joylari bilan ta'minlash imkoniyatlaridan (hozirda va istiqbolda) kelib chiqilgan holda amalga oshirilishi lozim. Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik iste'molchining talab va ehtiyojlariga qaratilgan bo'lishi zarur. Bunga erishish uchun mehnat bozoridagi talab va taklif, umuman, bu

bozorining holatini doimiy ravishda o'rganib borish lozim. Demak ta'lim tizimida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ta'lim xizmatlari bozorini mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirishdan iborat.

Ta'lim xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan yana biri uni davlat tomonidan tartiblashning samaradorligini oshirishdir. Tabiiyki, bunga davlatning ta'lim xizmatlari bozoridagi oqilona siyosati orqali erishiladi. Bu masalani institutsionalizm nuqtai nazaridan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv quyidagi holatlarni tahlil etishni talab etadi:

- qanday imkoniyatlar mavjud va ularning holati;
- ta'lim xizmatlari bozorining samarali rivojlanishi uchun qanday institutlarni shakllantirish zarur.

Ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanishini ta'minlash uchun aholining katta qismi oliy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. O'z navbatida ta'lim sohasida berilayotgan bilimlar jahon talablari va andozalariga javob berishi lozim. Oliy ta'limning ochiqqligi quyidagi mezonlar orqali baholanadi:

- yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga kirishda teng sharoitda qatnasha olishlari;
- oliy ta'lim muassasalariga kirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning ota-onalarning imkoniyatlariga qanchalik to'g'ri kelishi.

Ta'kidlash joizki, ta'lim xizmatlari bozorining barcha subyektlari davlat tomonidan huquqiy himoya qilingan bo'lishi lozim. YA'ni davlat ta'lim xizmatlari bozoridagi sotuvchi va xaridorga ma'lum darajada erkinlik bergan holda, ushbu bozorni to'liq nazorat qilishi zarur. Chunki davlat ta'lim xizmatlari bozorida nohalol xizmat ko'rsatuvchilardan iste'molchilarni himoyalash lozim. Ma'lumki, davlat bozor mexanizmining o'rnini bosmaydi, balki uni to'ldirib, muvofiqlashtirib boradi.

Ta'lim xizmatlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ta'lim tizimini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va yangilarini tatbiq etishdan iborat. Ta'lim tizimida davlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish, budjetdan tashqari mablag'larni ishlab topish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bilan bir qatorda, unga xususiy va korporativ mablag'larni investitsiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu mexanizmlarni amaliyotga tatbiq etish sohadagi umumiy moliyaviy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash bilan bir qatorda, uning mehnat bozoridagi talablarga moslashuvchanligini oshiradi, ta'lim sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, ushbu yo'nalish quyidagi masalalarni hal etishni talab etadi:

- ta'limga ajratilayotgan budjet mablag'laridan yanada oqilona va samarali foydalanish;

- oliy ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari moliyaviy mablag'lardan tushumlar hajmini oshirishni rag'batlantirish.

Shunday qilib, ta'lim uzluksizligini ta'minlash, ta'lim xizmatlarining sifatini oshirish, mamlakatimizda joriy etilgan kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish, ta'lim tizimini moliyalashtirishni takomillashtirish ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Monografiya. Ta'lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish. R.M.Usmanova, A.Qodirov, A.M.Tursunov, 2015

Abulqosimov X.P. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish - T., TMI, 2006.-187 b.

Babayan S.A., Zuyev V.M. Kadri v usloviyax rinka - M.: Ekonomika, 1992. -160 s.

Becker G. Human Capital. N.Y.: 1964 - 43 p.

Бартенев С. Экономические теории и школы—М.: Бек,1999.-352 с.

Теория и практика интегративных исследований в гуманитаристике / [Р. М. Ковалева и др. ; редкол.: Р. М. Ковалева (гл. ред.) и др.] ; БГУ. Минск : БГУ, 2021. 295 с. .

Макарова М. В. Управленческий консалтинг в сфере образования : учеб. пособие для учреждений высшего образования / М. В. Макарова. М. : Юрайт, 2021. 79 с. : ил.

Сорокин П. А. Человек, цивилизация, общество / П. А. Сорокин. — М: Издательство политической литературы, 1992. — 393 с.

Iqtisodiy tadqiqotlar

ILMIY JURNALI

Tahririyat manzili:
100003, Toshkent sh., Chilonzor tumani, I. Karimov ko'chasi 49-uy
Telefonlar *****